




**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL  
YANVAR-NOYABR**

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, Toshkent viloyatida jami 12253,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 105,6 %ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar



# 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1515

•Bino va inshootlar qurish

377

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1053

•Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 71,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,4 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,0 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,9foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,8 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 68,9 foizni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.12.2023- y.	01.12.2022- y.	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2945</b>	<b>4108</b>	<b>71,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	126	207	60,9
Olmaliq	142	219	64,8
Angren	174	285	61,1
Bekobod	119	187	63,6
Ohangaron	105	150	70,0
Chirchiq	303	346	87,6
Yangiyo'l	74	93	79,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	60	96	62,5
Ohangaron	65	84	77,4
Bekobod	89	124	71,8
Bo'stonliq	117	153	76,5
Bo'ka	115	149	77,2
Quyichirchiq	61	92	66,3
Zangiota	220	297	74,1
Yuqori Chirchiq	187	246	76,0
Qibray	299	417	71,7
Parkent	94	119	79,0
Piskent	62	86	72,1
O'rta Chirchiq	150	215	69,8
Chinoz	89	145	61,4
Yangiyo'l	131	208	63,0
Toshkent	163	190	85,8



# 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


**Qibray (10,2)**



**Chirchiq sh. (10,3)**



**Zangiota (7,5)**





# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofimlar	norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>12253,0</b>	<b>2452,5</b>	<b>6520,4</b>	<b>3280,1</b>
<b>shaharlar:</b>				
Nurafshon	612,8	40,2	534,0	38,6
Olmaliq	1832,5	1517,6	222,6	92,3
Angren	318,8	9,4	250,8	58,7
Bekobod	368,5	159,5	154,0	55,0
Ohangaron	207,7	0,9	172,0	34,8
Chirchiq	463,3	35,5	385,9	41,9
Yangiyo'l	305,4	30,3	224,8	50,3
<b>tumanlar:</b>				
Oqqo'rg'on	279,2	24,6	205,0	49,6
Ohangaron	452,6	1,9	353,1	97,6
Bekobod	116,5	0,0	68,4	48,1
Bo'stonliq	408,3	47,3	92,7	268,3
Bo'ka	302,6	0,0	252,4	50,2
Quy Chirchiq	667,6	0,5	567,3	99,8
Zangiota	1188,2	0,6	820,7	366,9
Yuqori Chirchiq	1127,0	134,3	657,0	335,7
Qibray	1195,6	407,2	370,3	418,1
Parkent	298,7	0,0	90,3	208,4
Piskent	164,2	0,0	117,2	47,0
O'rta Chirchiq	557,6	31,3	324,9	201,4
Chinoz	211,4	0,0	118,1	93,3
Yangiyo'l	506,5	11,4	283,8	211,3
Toshkent	667,9	0,0	255,1	412,8

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2452,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 98,6 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,5% punktga kamayib, 20 %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,2% ga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 102,5 %ni tashkil etgan holda 6520,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

53,2

2023- yil  
Yanvar-noyabr

55,1

2022- yil  
yanvar-noyabr



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (820,7 mlrd.so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,6% ), Yuqori Chirchiq tumani (657 mlrd.so'm yoki 10,1 %) Quyi Chirchiq tumani (567,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 8,7%)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 26,8 %ni tashkil etdi yoki 3280,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 119,3 %ni tashkil etdi.

2022- yil  
yanvar-noyabr

**2457,8**  
mlrd. so'm


2023- yil  
yanvar-noyabr

**3280,1** mlrd.  
so'm

**23,4%**

**26,8%**

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **250,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **12002,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1%** va **97,9%**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



**Ma'lumot uchun:** Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70